



Oliy Ta'limda “Milliy Qadriyatlar – Millat Iftixori” Mavzusini Interfaol Metodlar Asosida Tashkil Etish

Annotatsiya:

Ushbu maqola oliy ta'limning o'zga til guruhlarida o'zbek tili fanini interfaol usullar asosida o'qitilishi masalasiga bag'ishlanadi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida kamol toptirish, davlat tiliga hurmat, ehtirom uyg'otish borasida milliy qadriyatlarning o'rni beqiyos. Shunga ko'ra, mustaqil, kreativ fikrlaydigan, zamon talabiga javob beradigan, iqtidorini namoyon eta biladigan faol yoshlarni shakllantirish borasida darslarni qiziqarli tashkil etish o'qituvchidan izlanish, tashabbuskorlik talab qiladi. Bu masala ta'lim sohasi uchun nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar:

milliy urf-odat, qadriyat, so'z yasalishi, tavsifiy matn, so'z boyligini oshirish, bilish, eshitish, gapirish, imlo, munozara.

Information about the authors

Dedaxanova Muazzam,
*Toshkent moliya instituti o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

Kirish (Introduction). Yangi O'zbekistonning jamiki fuqarosi oldidagi muqaddas vazifalardan biri davlat tiliga hurmat va e'tibor bilan qarash hisoblanadi. Turli tillarda gapira olgan inson o'z tilida mustaqil fikrlay olmasa yoki o'zi yashab turgan ona-Vatanning davlat tilini bilishga qiziqmasa, bu – juda achinarli hol. Shunday ekan, har bir oliy ma'lumotli shaxsda mustaqil fikrini davlat tilida ham bayon eta olishidan g'ururlanish hissini shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega.

Oliy ta'limda boshqa tilga ixtisoslashgan guruhlariga amaliy mashg'ulot sifatida bakalavriatning 1-bosqichida o'zbek tili fani o'qitilishi barchamizga ma'lum. Quvonarli jihat shundaki, birinchidan, bu fan davlat tiliga hurmat, ehtirom uyg'otish, vatanparvarlik ruhida kamol toptirish kafolatini beradi. Ikkinchidan, O'zbekistonda yashagan inson qaysi millat vakili bo'lmasin, ayniqsa, oliy ma'lumotga ega bo'lgach, o'zbek tilida aniq, ravon gapira olishi, notiqlik mahorati, nutq madaniyatidan boxabar bo'lishi shaxsiy yutuq ekanini his qilishi zarur. Buni rivojlangan mamlakatlarning davlat tili mavqeyi misolida ko'rishimiz mumkin.

Toshkent moliya instituti(TMI)ning o'zga til guruhlar uchun mo'ljallangan o'zbek tili fani dasturida “**Milliy qadriyatlar – millat iftixori**” nomli mavzu bor. Undan ko'zlangan maqsad:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib, so'zlash. Milliy urf-odatlarini ta'riflab berish.

Yozma nutq: Biror milliy bayram, marosimdan olingan taassurotlarni yozish. “Turli millatlarning urf-odatlarini” mavzusida polilog tuzish va uni insenirovka qilish.

Grammatika: O'zbek tilida so'z yasalishi.

Metodlar (Methods). Darsda oldimizga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun dars ssenariysini “O'ZBEGIM” dasturi asosida [1, 108] tashkillashtirishimiz mumkin:



“O'ZBEGIM” DASTURI

T/r	Reja	Inglizcha tarjimasini	Bajariladigan ishlar
I.	Bilish, lug‘at boyligini oshirish	Learning, Vocabulary	O'Z(uz)bek adabiy tilida “Milliy qadriyatlar – millat iftixori” mavzusi yuzasidan tushunchalarini ifodalash, tahlil etish.
II.	Eshitish	Listening	Biror milliy odat yoki qadriyat asosida tayyorlangan ovozli matn(rivoyat)ni eshitib, munosabat bildirish, muammoli vaziyatni yuzaga keltirish.
III.	Gapirish	Speaking	Pantomima shaklidagi sahna ko‘rinishini aniqlash va izohlash.
	<i>Bilish, lug‘at boyligini oshirish</i>	<i>Learning, Vocabulary</i>	“O‘zbek tilida so‘z yasalishi” mavzusini taqdimot asosida tushuntirish, nazariy ma’lumotlarni amaliyotga tatbiqi.
IV.	Imlo – yozish	Writing	Matn yaratish: tarqatilgan rasm orqali milliy qadriyatni aniqlab, yozma ravishda tasvirlash va yasama so‘zlarni izohlash.
V.	Mustahkamlash	Strengthening	Savol-javob, test

Iqtisod yo‘nalishidagi oliygohlardan farqli o‘laroq tilga ixtisoslashgan universitetlarda, xususan, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti(O‘zDJTU)dagi 1-bosqich rus guruhlarini uchun tuzilgan o‘zbek tili fani ish rejasida har bir mavzuga, albatta, yo she‘r, yo badiiy asar ustida ishlash ilova qilingan. Jumladan, “*Milliy odat va qadriyatlar – el iftixori. Tasviriy matn. Mutolaa: Abdulla Qahhor. "Dahshat" hikoyasi*” (2 soat) mavzusidagi amaliy mashg‘ulot. Ushbu mavzuni yuqoridagi uslubga moslashtirish uchun o‘zimizga qulay holda ketma-ketlikni erkin o‘zgartirgan holda ham reja tuzishimiz mumkin:

“O'ZBEGIM” DASTURI

T/r	Reja	Inglizcha tarjimasini	Bajariladigan ishlar
I.	Bilish, lug‘at boyligini oshirish	Learning, Vocabulary	O'Z(uz)bek adabiy tilida “Milliy odat va qadriyatlar – el iftixori” mavzusi yuzasidan tushunchalarini ifodalash, tahlil etish.
II.	Eshitish	Listening	Biror milliy odat yoki qadriyat asosida tayyorlangan ovozli matn(rivoyat)ni eshitib, munosabat bildirish, muammoli vaziyatni yuzaga keltirish.
III.	Gapirish	Speaking	Pantomima shaklidagi sahna ko‘rinishi qaysi urf-odat ekanini aniqlash va izohlash.
	<i>Bilish, lug‘at boyligini oshirish</i>	<i>Learning, Vocabulary</i>	“ <i>Tasviriy matn</i> ” mavzusini taqdimot asosida tushuntirish.
IV.	Imlo – yozish	Writing	Matn yaratish: tarqatilgan rasm orqali milliy qadriyatni aniqlab, yozma ravishda tasvirlash.
	<i>Gapirish</i>	<i>Speaking</i>	<i>Abdulla Qahhor. "Dahshat" hikoyasidan sahna ko‘rinishi</i>
V.	Mustahkamlash	Strengthening	Savol-javob, munozara, test



Natija va munozara (Results, and Discussion). Yuqoridagi ikki jadvalni umumlashtirgan holda darsni quyidagicha yo'lga qo'yish mumkin:

I. O'zbek tilini B-ilish (Learning, Vocabulary)

Talabalarni 3 guruhga ajratgan holda darsni musobaqa shaklida tashkil etish vaqtini qiziqarli, unumli o'tishi va barcha talabalarning faol bo'lishiga zamin yaratadi. Qolaversa, raqobat bor joyda – o'sish, taraqqiyot bor.

Mavzu yuzasidan ma'lumotlar talabalarga oldindan mustaqil o'qish uchun berilgan bo'lib, "milliylik", "ma'naviyat", "urf-odat", "qadriyat" tushunchalarining afzalligi va ularda qanday o'xshash va farqli jihatlar borligini qiyosiy tahlil, aniqrog'i, taqqoslash (qiyoslash) metodi orqali izohlash bilan dars boshlanadi. So'ngra o'zbekona urf-odatlar bo'yicha talabalar qay darajada tasavvurga ega ekanliklari "Aqliy hujum" metodi orqali aniqlab olinadi.

II. E-shitish – Listening

Biror milliy odat yoki qadriyatning kelib chiqish tarixi asosida tayyorlangan ovozli matn(rivoyat)ni eshittirilib, unga munosabat bildirish so'raladi. Masalan, marosimlarda qo'lga suv quyish tarixi haqidagi "Dovud va Sulaymon" payg'ambarlar rivoyatini eshittirish va qo'lga suv quyish urfi ekanini aniqlashni muhokamaga qo'yish mumkin.

III. G-apirish (Speaking)

Har bir guruh raqib guruhlarga biror viloyatga yoki xalqimizning umumiy urf-odatiga xos milliy udum, qadriyat(bayram, to'y, ma'raka...)lardan namunani pantomima shaklida sahnalashtirib, ko'rsatib beradi, boshqa guruhlarga esa u qaysi udum ekanini aniqlab, izohlashi talab qilinadi.

O'zbek tilini B-ilish (Learning, Vocabulary)

O'qituvchi grammatik mavzu ("O'zbek tilida so'z yasalishi" – TMI, "Tasviriy matn" – O'zDJTU) bo'yicha nazariy ma'lumotni misollar yordamida amaliyotga bog'lab, taqdimot (slayd) asosida tushuncha beradi.

IV. I-mlo (Writing). Matn yaratish

Berilgan surat (masalan: *beshtik, salom berayotgan kelin, uloq (ko'pkari) o'yini, doshqozonda sumalak, atlas...*) asosida, yozma ravishda, tasviriy matn tuzish topshiriladi. Talab: 5 daqiqa ichida kamida 50 ta so'z atrofida bo'lishi zarur. (bunga qo'shimcha ravishda TMI talabalari, "O'zbek tilida so'z yasalishi" mavzusi o'tilgani bois, o'z yaratgan matnlaridagi yasama so'zlarni ostiga chizgan holda, yasalish turini izohlashlari talab qilinadi). Yaratilgan matn o'qib eshittirilishi davomida har bir guruh a'zosi "O'zbek xalqi milliy odat va qadriyatlari" aks etgan bitta umumiy daraxt shoxlarini bunyod etadi. Ballar yozuv taxtasiga yozib boriladi.

G-apirish (Speaking)

Keyingi shartda esa TMIda darslikda berilgan mashqlar tahlili asosida jadvalga yasalish turiga asosan so'zlarni joylash bo'yicha musobaqa shartlari davom etadi.

O'zDJTUDA tashkil etilgan darsda esa har bir guruh Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasi asosida kichik sahna ko'rinishi namoyish etadi.

V. M-ustahkamlash (Strengthening)

Guruh a'zolari quyidagi savollarga belgilangan vaqt ichida hamkorlikda kelishib, o'z javoblarini aytishadi:

1. Sizningcha, asardagi qaysi voqea o'zgarganida hikoya boshqacha yakunlangan bo'lar edi?



2. Asarni davom ettirish imkoni bo`lganida, siz hikoyaga yana qanday voqea va tasvirlar qo`shar edingiz?
3. "O`tmishda va bugun ayol taqdiri" mavzusida "Dahshat" hikoyasi yuzasidan munozara...

Dars so`ngida yuqoridagi barcha ma'lumotlar asosida tuzilgan tezkor savol-javob va test ustida ishlanadi.

Uyga vazifa:

1. Biror milliy bayram, marosim va undan olingan taassurotlar asosida taqdimot tayyorlash.
2. "Turli millatlarning urf-odatlarini" mavzusida polilog tuzish va uni sahnalashtirish.
3. "Unsinga xat"...



Agar...

Sizda hikoya qahramoni Unsinga xat yozish imkoni bo`lsa, nimalar haqida yozgan bo`lar edingiz?



Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib aytish mumkinki, amaliy mashg`ulotlarda asosiy e`tiborni talabalarning mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish borasidagi munozaralarga doir topshiriqlar ustida ishlashga qaratish ko`zlangan natija beradi. Bu borada quyidagilar doimiy talab sifatida inobatga olinishi maqsadga muvofiq:

- 1) tinglab tushunish bo`yicha biror munozarali matnni audio shaklida eshittirib, bahs tashkil etish;
- 2) biror narsani baholash, ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilish va muammoni bartaraf etish bo`yicha mulohaza yuritish;
- 3) lug`at diktant olish yoki xatoni topish bo`yicha tezkor musobaqa tashkil qilish;
- 4) ochiq va yopiq test nazorati.

Darhaqiqat, ta`lim sifatini oshirish borasida xorijiy tajribalarni yurtimizga tatbiq etuvchi millatparvar olimlar, pedagoglar, vatanparvar fidoiy insonlar bor ekan, yurtimiz iqtisodiy barqarorlikka erishishi, rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib joy egallashi shubhasiz. Shuning uchun oliygohlarning o`zga til guruhlarida o`zbek tili fani o`qitilishi zamirida ham chuqur mohiyat bor. Ham amaliy, ham nazariy bilim, malaka, ko`nikmaga ega bo`lgan, oliy maqsad yo`lida texnologiyadan unumli foydalanishni biladigan kadrlar jamiyat uchun hamma sohada ham nihoyatda zarur. Mustaqil tafakkur qila olgan, kitob bilan ishlashni bilgan, o`z tilida aniq, ravon gapira olgani holda xorijiy tillarni ham o`zlashtira bilgan yoshlardan yuqori saviyadagi ilmiy salohiyatga ega kadrlar, buyuk iqtisodchilar,



banker, biznesmenlar, tarjimon, elchilar chiqishi tabiiy. O‘zbekiston yuksalishi uchun ana shunday bilimli, yangicha innovatsion g‘oyalari tashabbuskorlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar (References):

1. Dedaxanova M.A. Oliy ta’limda o‘zbek tili fanini noan’anaviy usulda o‘qitishning ahamiyati. Interpretation and researches. // Volume 1 issue 4 | ISSN: 2181-4163 | UIF-2023: 8.2. (<https://doi.org/10.5281/zenodo.7748110>) – B. 107-110.